



## KONSTITUTSIYAVIY SUD TOMONIDAN KONSTITUTSIYAGA ZID DEB TOPILISHINING HUQUQIY OQIBATLARI VA UNI QO`LLASHNI TAQIQLASH MEXANIZMLARI

Choriyev Ulug`bek Rustamovich

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20486466>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2026 yil

Ma`qullandi: 28-may 2026 yil

Nashr qilindi: 30-may 2026 yil

### KEYWORDS

konstitutsiyaviy sud,  
konstitutsiyaviy nazorat,  
Konstitutsiyaga zid qonun,  
normativ-huquqiy hujjat,  
qonunning yuridik kuchi, huquq  
ustuvorligi.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Konstitutsiyaviy sud tomonida normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga zid deb topilishi natijasida yuzaga keladigan huquqiy oqibatlar tahlil qilinadi. Asosan, qonunning yuridik kuchini yo`qotishi, uni qo`llashni taqiqlash mexanizmlari hamda Konstitutsiyaviy sud qarorlarining majburiyligi masalalari nazariy va amaliy jihatdan o`rganiladi. Tadqiqotda konstitutsiyaviy nazorat instituti tushunchasiga tarif berilib, O`zbekiston qonunchiligi bilan birgalikda chet el tajribasi ham o`rganilib, tahlil qilinadi. Ushbu jarayonning o`ziga xos xususiyatlari ko`rib chiqiladi hamda konstitutsiyaviy adolat va qonun ustuvorligini ta`minlashda Konstitutsiyaviy sudning roli baholanadi. Muallif mazkur masalaning zaruratini ilmiy-nazariy asoslar bilan muhokama qilishga va chuqur o`rganishga harakat qildi.*

Oxirgi yillarda davlatimizda Konstitutsiyaviy sud faoliyatiga e'tibor yanada kuchaydi va ushbu organning huquqiy tizimida tutgan ahamiyati qanchlik muhim ekanligiga urg'u berilish yanada jadallashdi. Xususan, 2025-yilning 18-dekabr sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini yanada takomillashtirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" gi 253-sonli farmoni qabul qilindi [1]. Ushbu farmonda konstitutsiyaviy shikoyat va Konstitutsiyaviy sudning ijro hokimiyati ustidan nazoratiga e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, haligacha Konstitutsiyaviy sud hujjatlarining yuridik kuchi va ularning ta'siri masalasi dolzarb mavzu sifatida qolmoqda. Zamonaviy huquqiy davlatda Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega bo'lgan asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi va barcha normativ-huquqiy aktlar unga muvofiq bo'lishi shart. Konstitutsiya ustunligi qonuniylik kafolatidir. **M.M.Abdullayeva** aytganidek konstitutsiya muhofazasi orqali nafaqat konstitutsiya normalari, mazmuni, balki xalqning ijtimoiy ongi va madaniyati kabi qadriyatlar ham muhofaza etiladi. **M.M.Abdullayeva** Konstitutsiya muhofazasiga quyidagicha ta'rif bergan, "**Konstitutsiyani muhofaza etish** - konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni ishonchli himoya qilish, davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasida o'zaro tiyib turish hamda manfaatlar muvozanatini barpo etish, konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish orqali Konstitutsiyaning ustunligini hamda davlat organlari,

mansabdor shaxslar faoliyatida jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligini ta'minlashga qaratilgan faoliyatdir. Shuningdek, Konstitutsiyani muhofaza etish konstitutsiyaga og'ishmay amal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir[2].” Konstitutsiyaviy nazorat instituti esa konstitutsiyani muhofaza etishning asosiy vositasi hisoblanadi. Xususan, xorijiy huquqshunos olimlar - **T. Ginsberg va M. Versteg** konstitutsiyaviy nazoratni mahalliy sud yoki shu kabi sud organining milliy konstitutsiyaga nomuvofiqligi sababli qonunlardan foydalanishni keyinga qoldirishi yoki bekor qilishi bilan bog'liq rasmiy faoliyatdir deb qayd etadi.[3] Konstitutsiyaviy nazoratni har bir davlatda maxsus vakolatga ega bo'lgan organ amalga oshiradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasida ushbu vakolat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudiga tegishli bo'lib, ushbu organ qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi ishlarni ko'radi.[4] Konstitutsiyaviy sud tomonidan chiqariladigan hujjatlarning yuridik kuchi masalasi ushbu institutning ahamiyatga ega tomonlaridan biri hisoblanadi. Chunki Konstitutsiyaviy sud tomonidan qonunning Konstitutsiyaga zid deb topilishi nafaqat muayyan normaning amal qilishiga, balki butun huquqiy tizim barqarorligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bunday qarorlarning yuridik kuchi, majburiyligi va ularning barcha davlat organlari hamda mansabdor shaxslar uchun ahamiyati masalasi chuqur ilmiy tahlilni talab qiladi. Shu bilan birga, konstitutsiyaviy adolatni ta'minlashda sud qarorlarining bevosita amal qilishi, ularning vaqt va makondagi ta'siri hamda qonunlarni qo'llash amaliyotiga ta'siri alohida e'tiborga loyiqdir. Konstitutsiyaviy sud qarorlarining yuridik kuchini aniqlash, ularning huquqiy tabiati va oqibatlarini nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilishda biz faqatgina O'zbekiston bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy davlatlarning tajribasini ham o'rganish orqali mazkur jarayonni yanada chuqurroq tushunishga harakat qilamiz.

### **Metodologiya**

Ushbu tadqiqotning maqsadi konstitutsiyaviy sud tomonidan konstitutsiyaga zid topilish mohiyatini chuqurroq anglash hamda uni O'zbekiston va xorij tajribasiga tayangan holda o'rganib, tahlil qilishdan iborat. Mazkur jarayon inson huquqlarini ta'minlash mexanizmlari va huquqiy davlatda qonuniyligini ta'minlash masalalari bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilindi.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun tadqiqotda huquqiy tahlil, kontent tahlili va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Huquqiy tahlil yordamida mazkur tizimning normativ asoslari hamda ularning amaliy qo'llanish mexanizmlari o'rganildi. Kontent tahlili mavjud ilmiy manbalardagi faktik ma'lumotlarni tizimlashtirish va ularning mohiyatini aniqlashga xizmat qildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali esa xorijiy davlatlar tajribasi o'rganildi. Ushbu izlanish mazkur sohadagi tajribalarini kengaytirishga va xalqaro amaliyotdan foyda olishga yordam berdi. Eng asosiysi, tadqiqot natijasida konstitutsiyaviy nazorat organlari tomonidan chiqariladigan qarorlarni yuridik kuchi masalasi atroflicha o'rganildi. Natijada, ushbu metodolik yondashuvlar orqali mazkur tizimning tahlilini osonlashtirish va samaradorligini baholash imkoniyati paydo bo'ldi.

### **Tadqiqot natijalari**

Konstitutsiyaviy nazoratning inson huquqlarini himoya qilish nuqtayi nazaridan oladigan bo'lsak, ushbu institut har bir huquqiy davlat uchun juda ham ahamiyatli ekanligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida ham Konstitutsiyaviy nazorat funksiyasini amalga oshirish O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudiga berilgan. Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaga va “Konstitutsiyaviy sud to'g'risida”gi qonunga muvofiq o'z vakolatlari va

huquqlariga ega. Konstitutsiyaviy sud tomonidan konstitutsiyaga zid deb topilgan ham huquqiy oqibati haqida ham **“Konstitutsiyaviy sud to`g`risida”**gi qonunda normalar keltirilgan. Mazkur qonunning 73-moddasida konstitutsiyaviy sudning qarorining yuridik kuchi haqida ma`lumot berilgan bo`lib, unga ko`ra Konstitutsiyaviy sudning hujjati qat`iy va uning ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas. Konstitutsiyaviy sudning qaroriga ko`ra O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq emas deb topilgan normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi o`zining amal qilishini tugatadi. Konstitutsiya zid deb topilgan hujjatni qabul qilgan davlat organi o`z hujjatini Konstitutsiyaviy sudning qarori asosida bir oydan kechiktirmay O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqlashtirishi kerak. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq emas deb topilgan normativ-huquqiy hujjat asosida qarorlar qabul qilgan davlat organlari ularni bir oy ichida qaytadan ko`rib chiqishi kerak.[5] Ushbu moddadagi normalarga binoan, O`zbekiston Respublikasida konstitutsiyaga zid deb topilgan hujjat o`z yuridik kuchini va ahamiyatini yo`qotadi. Mazkur hujjatni qabul qilgan organning zimmasiga ham o`zi qabul qilgan hujjatni konstitutsiyaga muvofiqlashtirishi uchun vaqt beriladi va davlat organi mazkur hujjatni konstitutsiyaviy sudning qaroriga muvofiqlashtirishi shart etib belgilangan. Endi esa asosiy xulosa shundaki, Konstitutsiyaviy sudning qarori asosida konstitutsiyaga zid deb topilgan hujjat asosida qabul qilingan boshqa turdagi hujjatlar va qarorlar ham maxsus vakolatli davlat organiga qayta ko`rib chiqish va konstitutsiyaga muvofiqlashtirish uchun yuborilar ekan. Bunga qo`shimcha tartibda **“Normativ-huquqiy hujjatlar to`g`risida”**gi qonunning 5-moddasida ham “konstitutsiyaviylik” prinsipining alohida etirof etilishi har bir qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjat konstitutsiyaga zid bo`lmasligi kerakligini bildiradi.[6] “O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to`g`risida”gi Konstitutsiyaviy qonun 73-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq Konstitutsiyaviy sudning qaroriga ko`ra Konstitutsiyaga muvofiq emas deb topilgan normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi o`zining amal qilishini tugatadi. Mazkur moddaning uchinchi qismiga muvofiq Konstitutsiyaga muvofiq emas deb topilgan hujjatni qabul qilgan davlat organi o`z hujjatini Konstitutsiyaviy sudning qarori asosida bir oydan kechiktirmay Konstitutsiyaga muvofiqlashtirishi kerak.[7] O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan ko`rib chiqilgan ishlarga amaliy misol sifatida 2022-yil 31-mayda konstitutsiyaviy sud tomonidan qabul qilingan qarorni olishimiz mumkin. Fuqaro M.Xasanovning shikoyati bo'yicha O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 197 va 206-moddalarining hamda O`zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi 11 va 27-moddalarining O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi maslasidan ish ko`rilgan.Uning natijalariga ko`ra esa Fuqarolik kodeksining tegishli moddalari konstitutsiyaga zid deb topilgan. Ushbu qaror asosida O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga 2022-yil 7-noyabrda o`zgartirish kiritilgan. O`zbekiston Respublikasida 2022-yilda amalda bo`lgan Konstitutsiyasining 53-moddasida mulk huquqi qonun hujjati asosida bekor qilinishi belgilab qo`yilgan edi. Fuqarolik kodeksining 197-moddasida esa qonunchilik hujjati degan norma mavjud bo`lgan va aynan manashu “qonunchilik hujjati” degan so`z konstitutsiyaning 53-moddasiga zid deb topilgan [8]. Ushbu qarordan so`ng 2022-yil 7-noyabrda 801-sonli O`RQ bilan Fuqarolik kodeksiga “qonun asosida bekor qiluvchi qonunchilik hujjatiga asosan mulk huquqini bekor qilinadi” o`zgartirish kiritilgan. Bizingcha mazkur moddada faqatgina “qonun” so`zi normaga qo`shilgan bo`lib, mazmun jihatdan deyarli o`zgarish bo`lmagan va

Konstitutsiyaviy sud qarorining real ijrosini ta'minlash uchun bu hech qanday kolliziyalarga sabab bo'lmaydigan tarzda o'zgartirilishi zarur

Xorij tajribasiga to'xtaladigan bo'lsak, **Fransiyada** konstitutsiyaviy nazoratni **Question prioritaire de constitutionnalité (QPC)** institute amalga oshiradi. Fransiya Konstitutsiyaviy kengashi (Conseil constitutionnel) bergan rasmiy ta'rifga ko'ra, - "Konstitutsiyaviylik masalasini birinchi navbatda ko'rib chiqish (QPC) — bu sud jarayonidagi har qanday shaxsning, muayyan qonun qoidasi Konstitutsiya bilan kafolatlangan huquq va erkinliklarni buzayotganligini iddao qilish huquqidir. O'zbekiston tajribasidan farqli ravishda konstitutsiyaga zid deb topilgan hujjatning yuridik kuchi Fransiya konstitutsiyasining 62-moddada qayd etilgan bo'lib, Konstitutsiyaga zid deb topilgan qonun e'lon qilinmaydi yoki qo'llanilmaydi. Agar norma QPC tartibida bekor qilinsa, u Kengash belgilagan kundan boshlab o'z kuchini yo'qotadi. Konstitutsiyaviy kengash qarorlari yakuniy va majburiy bo'lib, ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas. Mazkur normaning konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo'yilishi ham, konstitutsiyaviy nazorat organi tomonidan qabul qilingan qarorning huquqiy tabiati yuqori ekanligi anglatadi.[9] Konstitutsiyaviy sud tomonidan qonunlarning bekor qilinishi masalasida **Germaniya va AQSH** tizimlari o'rtasida o'ziga xos o'xshashliklar mavjud. **L. Determann va M. Heintzen (2005)** o'zlarining qiyosiy tadqiqotlarida ko'rsatgani asosida tahlil qilib chiqamiz. Har ikki yurisdiksiyada ham Konstitutsiyaning iyerarxik ustunligi (supremacy) asosiy tamoyil hisoblanadi. Germaniyada, agar Federal Konstitutsiyaviy sud qonunni konstitutsiyaga zid deb topsa, u odatda "nichtig" (mutloq haqiqiy emas) deb e'lon qilinadi. Bu shuni anglatadiki, qonun o'zining yuridik kuchini yo'qotadi va kelajakda qo'llanilishi taqiqlanadi. AQSHda esa *Marbury v. Madison* pretsedentidan buyon Konstitutsiyaga zid qonunlar "yuridik kuchga ega emas" (void) deb hisoblanadi. Biroq, AQSHda qonun butunlay bekor qilinishidan ko'ra, ko'pincha muayyan ish doirasida "ijro etilmaydigan" deb topilishi bilan farqlanadi. Konstitutsiyaga zid deb topilgan qonunning o'tmishdagi harakatlarga ta'siri Germaniya va AQSHda o'xshash mexanizmlarga ega: **Jinoiy tartibda:** Har ikki davlatda ham, agar shaxs konstitutsiyaga zid deb topilgan qonun asosida hukm qilingan bo'lsa, ishni qayta ko'rib chiqish va hukmni bekor qilish imkoniyati mavjud. **Fuqarolik va ma'muriy tartibda:** Germaniyada huquqiy barqarorlikni saqlash maqsadida, agar shikoyat muddati o'tgan bo'lsa, o'tmishdagi ma'muriy hujjatlar o'z kuchida qoladi (masalan, to'langan soliqlar qaytarilmaydi). AQSHda ham shunga o'xshash "prospective effect" (kelajakka yo'naltirilgan ta'sir) tamoyili keng qo'llaniladi, ya'ni sud qarori asosan kelajakdagi nizolarga nisbatan majburiy kuchga ega bo'ladi.

Germaniya huquqiy maktabida ikki xil yondashuv mavjud: **Voidness:** Qonun konstitutsiyaga zid bo'lgan paytdan boshlab (*ab initio*) o'z-o'zidan haqiqiy emas, sud esa shunchaki ushbu fakti tasdiqlaydi. **Voidability:** Qonun sud qarori chiqqunga qadar amal qiladi va faqat sud qarori bilan kuchdan qoldiriladi. Amaliyotda, Germaniya Konstitutsiyaviy sudi ko'pincha qonunni darhol bekor qilmasdan, qonun chiqaruvchiga xatoni tuzatish uchun muddat berishi (unvereinbar - mos kelmaslik qarori) "voidability" doktrinasiga yaqinroqdir. AQSHda esa, sudlar faqat "ishlar va nizolar" (cases and controversies) doirasida qaror chiqargani sababli, qonun nazariy jihatdan "haqiqiy emas" deb hisoblansa-da, amalda u sud tomonidan bekor qilingunga qadar yashashda davom etadi.

AQSH tizimida **Stare Decisis** (pretsedentga amal qilish) tamoyili tufayli, bitta sudda qonunning konstitutsiyaga zid deb topilishi zanjirsimon reaksiya berib, keyingi barcha sudlar

uchun majburiy ko'rsatma bo'ladi. Germaniyada esa Federal Konstitutsiyaviy sud to'g'risidagi qonunning 31-moddasiga binoan, sud qarori "Gesetzeskraft" (qonun kuchi)ga ega va barcha davlat organlari uchun umummajburiy xarakter kasb etadi.[10] Germaniya va AQSH tajribasi shuni ko'rsatadiki, konstitutsiyaviy nazoratning asosiy maqsadi nafaqat qonunni bekor qilish, balki huquqiy tizimning Konstitutsiyaga muvofiqligini ta'minlashdir. Germaniyadagi 'nichtig' va AQSHdagi 'void' tushunchalari mazmunan bir xil - konstitutsiyaga zid norma jamiyatda majburiy kuchga ega bo'lishi mumkin emas. Indoneziya huquqiy tizimida Konstitutsiyaviy sud qarorlari hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki: Sud qarori ustidan apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat qilib bo'lmaydi. Qaror e'lon qilingan vaqtdan boshlab darhol kuchga kiradi va ijro etilishi majburiy hisoblanadi. Maqolada ta'kidlanishicha, Indoneziya KS qarorlari erga omnes (barcha uchun umummajburiy) xarakterga ega. Bu oddiy sud qarorlaridan farq qiladi. Qaror nafaqat ariza bergan tarafga, balki barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarga nisbatan amal qiladi. Konstitutsiyaga zid deb topilgan qonun o'zining majburiylik kuchini butun jamiyat uchun yo'qotadi. Indoneziya qonunchiligiga ko'ra (xususan, 2020-yildagi 7-sonli Qonun bilan o'zgartirilgan 24/2003-sonli Qonun), Konstitutsiyaviy sudning qarori qonun bilan teng yuridik kuchga ega. Agar sud biror moddani haqiqiy emas deb topsa, ushbu qaror 30 ish kuni ichida Davlat gazetasida e'lon qilinishi shart. Bu qaror amalda qonun chiqaruvchi organ tomonidan qabul qilingan yangi qonun kabi kuchli ta'sirga ega. Indoneziyada KS qarorlari ochiq sud majlisida o'qib eshittirilgan daqiqadan boshlab doimiy yuridik kuchga ega bo'ladi. Huquqiy aniqlikni darhol ta'minlaydi. Siyosiy mulqotlar yoki parlament bahslariga nuqta qo'yib, Konstitutsiya ustuvorligini tiklaydi. Indoneziya KS "ijtimoiy nazorat" vositasi bo'lib xizmat qiladi. Hatto ijroiya va qonun chiqaruvchi hokimiyatlar kelishgan holda qabul qilgan siyosiy mahsulot (qonun) bo'lsa ham, agar u Konstitutsiyaga zid bo'lsa, KS uni bekor qilish orqali hokimiyatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlaydi. Indoneziya tajribasida KS qarorlari nafaqat qonunni bekor qiladi, balki ba'zida yangi huquqiy normalarni ham shakllantiradi. Bu orqali sud Konstitutsiyaning "sofligini" va fuqarolarning fundamental huquqlarini amalda himoya qiladi.[11] Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Germaniya, AQSH va Indoneziya kabi davlatlarda Konstitutsiyaviy sud tomonidan qonunning konstitutsiyaga zid deb topilishi uning yuridik kuchini (boshidanoq) yoki (bekor qilingan paytdan) yo'qotishiga olib keladi. Mazkur mamlakatlar tajribasida sud qarorlari (umummajburiy) xarakterga ega bo'lib, nafaqat nizo taraflari, balki barcha davlat organlari uchun qonuniy kuchga ega bo'lgan yakuniy hujjat hisoblanadi.

Ayniqsa, jinoiy huquq sohasida konstitutsiyaga zid norma asosida chiqarilgan hukmlarning qayta ko'rib chiqilishi inson huquqlarini himoya qilishning oliy kafolati sifatida namoyon bo'ladi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, sud qarorlarining qat'iyligi va ularni ijro etishning aniq mexanizmlari jamiyatda huquqiy aniqlik hamda Konstitutsiya ustuvorligini ta'minlovchi asosiy omildir.

### **Xulosa**

Mazkur tadqiqot natijalari konstitutsiyaviy nazorat instituti huquqiy davlat barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Konstitutsiyaviy sud tomonidan normativ-huquqiy hujjatning Konstitutsiyaga zid deb topilishi ushbu hujjatning yuridik kuchini yo'qotishiga va uni qo'llash imkoniyatining bekor qilinishiga olib keladi. Bu esa Konstitutsiya ustuvorligi tamoyilining amaliy ifodasi bo'lib, huquqiy tizimda yagona va izchil tartibni ta'minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida Konstitutsiyaviy sud qarorlarining

umummajburiyligi, ularning bevosita amal qilishi hamda barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar uchun majburiy ekani aniqlandi. Konstitutsiyaviy sud qarorlarining yuridik kuchi nafaqat muayyan normaning amal qilishini to'xtatadi, balki qonunchilikni takomillashtirish, huquqni qo'llash amaliyotini bir xillashtirish va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq hamda erkinliklarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko'rsatdiki, rivojlangan davlatlar tajribasida konstitutsiyaviy sud qarorlarining majburiyligi va ularning normativ-huquqiy tizimga ta'siri konstitutsiyaviy qonuniylikni mustahkamlashning muhim vositasi hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham O'zbekiston huquqiy tizimida ham ushbu qarorlarning ro'liga alohida urg'u qaratish va ularning ijrosi masalasida qat'iylikni nazoratga olish va kuchaytirish zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.12.2025-y., 06/25/253/1177-son) – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini yanada takomillashtirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" gi 253-sonli farmoni
2. Abdullayeva, M. (2021). Konstitutsiyaviy nazorat va konstitutsiyaviy odil sudlov (darslik). Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti nashriyoti.
3. T.Ginsburg and M.Versteeg. Why Do Countries Adopt Constitutional Review? Journal of Law, Economics, & Organization, Vol. 30, No. 3 (August 2014), pp. 587-622 Published by: Oxford University Press
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023, 30 aprel). <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida. (2021). O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni, O'RQ-687. <https://lex.uz/uz/docs/-5391934#-5399318>
6. Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida. (2021). O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'RQ-682. <https://lex.uz/docs/-5378966>
7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida. (2021). O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni, O'RQ-687. <https://lex.uz/uz/docs/-5391934#-5399318>
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi. (2022). Fuqaro M. Xasanovanning shikoyati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 197 va 206-moddalarining hamda O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi 11 va 27-moddalarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash to'g'risidagi ish yuzasidan qarori.
9. Conseil Constitutionnel. (n.d.). What is a priority preliminary ruling on constitutionality (QPC)? Retrieved May 22, 2024, from <https://qpc360.conseil-constitutionnel.fr/question-prioritaire-constitutionnalite-qpc>
10. Determann, L., & Heintzen, M. (2005). Constitutional review of statutes in Germany and the United States compared. The American Journal of Comparative Law, 53(1), 63–105.
11. Syaputra, M. Y. A., & Junaidi, M. (2023). The Legal Power of the Constitutional Court Decisions Remains. International Journal of Social Science Research and Review, 2(12),5114,5121.  
[https://www.researchgate.net/publication/376008071\\_The\\_Legal\\_Power\\_of\\_the\\_Constitutional\\_Court\\_Decisions\\_Remains](https://www.researchgate.net/publication/376008071_The_Legal_Power_of_the_Constitutional_Court_Decisions_Remains)